

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 8 Jild 4
2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҶА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА)	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i> ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i> ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ЎҚИТИЛИШИ	26-30
<i>Rustamov Ixomidin</i> “O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O‘ZBEKISTON TARIXI)	31-34
<i>Normo‘minov Aziz</i> O‘ZBEKISTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i> VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO‘YICHA TARG‘IBOTLAR SAMARASI	40-44
<i>Xamidova Shoir Rasulovna</i> PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i> МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА	52-54

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Raximov To‘xtabek Jumaboyevich</i> KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISHGA TA‘SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allaberganovich</i> TASHQI SAVDO SALONIYATINING MINTAQA IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ	69-81
<i>Baqoeva Dilfuza</i> SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIV BORILISHI, MOHIYATI VA YO‘NALISHLARI	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i> TIJORAT BANKLARI KREDIT QO‘YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	87-93

<i>Donayev Sheroli Burxonovich</i> DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT STRATEGIYASINING AHAMIYATI	94-101
<i>Кахаров Жасур Абулқосимович</i> ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	102-109
<i>Рахмонов Шухрат Шавкатович</i> ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	110-117
<i>Sherov Alisher Bakberganovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI	118-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIIY- AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI	130-135
<i>Muhamedov Asror</i> G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR	136-145
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY AHAMIYATI	146-151
<i>Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich</i> INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI	152-156
<i>Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich</i> AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI	157-162
<i>Шоназаров Жамшид Шухратович</i> ЖАДИДЛАР ҒОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ	163-168
<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI	169-174
<i>Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li</i> MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR SIFATIDA QARASH	175-179
<i>Muxtorova Tutixon</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	180-186
<i>Rahmonova Mavluda Abdusamadovna</i> ABDURAUFIY FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI	187-194

<i>Pirnazarov Nurnazar</i> TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING FALSAFIY TAHLILI.....	195-201
<i>Ismailov Dilshod Baxriddinovich</i> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI:KOMPARATIV YONDASHUV	202-209
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yuldoshova Shaxnoza Azimboyevna</i> RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI TALQINI	210-216
<i>Bozorbekov Ahmadbek</i> O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI	217-230
<i>Xamrayev Fozilbek Yo'ldoshevich</i> ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA MANBALARIDAN FOYDALANISH	231-236
<i>O'tebaeva Dilbar</i> TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR	237-242
<i>Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna</i> EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)	243-247
<i>Kadirova Zaynab Bakoyevna</i> INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	248-252
<i>Allaberganova Nilufar Matnazar qizi</i> QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI	253-256
<i>Nabiyeva Rushana Jamol qizi</i> OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA	257-262
<i>To'rayeva Iroda Sheramatovna</i> FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA SPETSIFIKASI	263-268
<i>Qodirova Munisa Erkinjon qizi</i> BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	269-272
<i>G'aniyeva Nozanin G'ayratovna</i> MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI	273-277
<i>Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna</i> TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHLILI	278-284
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY IFODA MUKAMMALLIGI	285-292
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI	293-298

12.00.00 – YURIDIK FANLAR*Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna*

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH

JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI 299-306

Узакова Гўзал Шариповна

ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА

ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ҲУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ 307-325

Пулатова Нодирахон Собиржонова

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ

ПРАВ ЧЕЛОВЕКА 326-332

Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich

MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI

HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 333-341

Абдурахманова Нодирахон

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В

ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ 342-345

Vokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li

TA'LIM OLIH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI 346-356

Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li

SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI 357-368

Утапов Фурқат

ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ҲУҚУҚИЙ

МАҚОМИ 369-374

Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li

XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH

TENDENSIYASI 375-381

Назарова Марҳабо

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В

УЗБЕКИСТАНЕ 382-386

Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич

ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ

МАСАЛАЛАРИ 387-400

Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи

ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ

МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ..... 401-406

Abdikhakimov Islombek

LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A

COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS 407-412

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI*Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna*

TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK

YONDASHUVLARNING ROLI 413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i> BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i> HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i> NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i> O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Ташпулатович, Якубова Азада Ботировна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i> O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i> YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i> SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i> MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH.....	462-467

Received: 30 July 2024
Accepted: 5 August 2024
Published: 15 August 2024

Article / Original Paper

SPECIFIC ASPECTS OF PHILOSOPHICAL APPROACHES TO GLOBALIZATION PROCESSES

Mukhtarova Tutikhon

Tashkent State Technical University

Associate Professor of the Department of “Philosophy and National Idea”

Abstract. This article discusses the specific aspects of philosophical approaches to globalization processes. The article analyzes the reasons, factors and necessity of the current globalization process in today's world. Philosophical issues of globalization are discussed from the author's point of view.

Key words: Globalization, philosophy, fundamental issues of science, philosophical analysis, nature, society

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Muxtorova Tutixon

Toshkent davlat texnika universiteti, “Falsafa va milliy g'oya” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlariga falsafiy yondashuvlarning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada bugungi kundagi dunyoda mavjud globallashuv jarayonining vujudga kelish sabablari, omillari va zarurati xususida tahlillar amalga oshirilgan. Globallashuvning falsafiy masalalari muallif nuqtai nazaridam muxokama qilingan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, falsafa, fanning fundamental masalalari, falsafiy tahlillar, tabiat, jamiyat

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N26>

Kirish. Falsafa insonning azaliy muammolarini aks ettiribgina qolmay, fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida tez o'zgarayotgan zamonaviy hayot amaliyotini ham qamrab oladi. Yangi hodisalar, g'ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlar va faylasuflar e'tiborini tortmoqda.

Falsafaning fandan ustunligi shundaki, u xulosalarida tafsilotlarga bog'lanib qolmaydi, vaqtinchalik hodisalarni chetlab o'tadi. Bu unga ishning mohiyatiga e'tibor qaratish, rivojlanishning asosiy omillari va jarayonlarini aniqlash imkonini beradi. Bu xususiyatlar insonning murakkab ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishga majbur bo'layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyatga ega.

Falsafiy tahlil usullari va metodlari, jumladan muhim narsalarni ikkinchi darajalidan, qonuniy narsalarni tasodifiydan ajratish, tarixiy rivojlanishda ob'ektiv jarayonlarni sub'ektiv omillardan farqlash kabi yondashuvlar, insoniyat duch kelgan global muammolarni nazariy tushunish va amalda bartaraf etish uchun juda muhimdir. Bu metodlar murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimini topishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XX asr boshigacha jahon tarixi asosan bir-biriga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan mustaqil sivilizatsiyalardan iborat edi. Ammo so'nggi yuz yil ichida jamiyat hayotining barcha sohalarida faol integratsiya jarayonlari natijasida dunyo sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit organizmga aylandi. Bu o'zgarishlar ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumjahon muammolari bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Jahon hamjamiyati rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich avvalgilaridan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qiladi. Ushbu o'zgarishlar majmui va ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv deb nomlandi. Globallashuv butun sayyora uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. U global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini tushunish borasidagi sa'y-harakatlar natijasida globalistika - globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, global muammolarni o'rganuvchi fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi paydo bo'ldi. Keng ma'noda "globalistika" atamasi globallashuvning turli jihatlarini va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, shuningdek ularning natijalarini amaliyotga joriy etish faoliyatini ifodalaydi.

Globalistika odatdagi fanlar qatoriga kirmaydi. U integratsiyalashuv jarayonlari natijasida vujudga keldi. Globalistikada turli fanlar o'zaro aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni o'rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi. Bu soha globallashuv jarayonlarini chuqur o'rganish, global muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini izlash imkonini beradi.

Muhokama. Globallashuv jarayonlarining ilk belgilari XV asr oxirlaridan ko'zga tashlana boshladi va XIX asr boshiga kelib real shaklni oldi. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yagona geografik, iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllandi. Bu davrda dunyoni tushunishda geotsentrik qarashlar o'rnini geliotsentrik yondashuvlar egalladi, insoniyat kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qila boshladi.

Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnika rivojlanishiga turtki berdi, bu esa fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobiga olib keldi. Natijada insonning tabiatni o'zgartirish imkoniyatlari va atrof-muhit bilan munosabati tubdan o'zgardi.

Yer sharsimon ekanligi isbotlangach, insoniyat tarixda birinchi bor savdo-sotiq sohasida jahon miqyosiga chiqdi va xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ilk transmilliy savdo kompaniyalari paydo bo'ldi. Ular tez orada qullar savdosi, plantatsiyalar va manzilgohlar barpo etish, mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishda faol ishtirok eta boshladi.

Bu jarayonlar jiddiy migratsiya oqimlariga sabab bo'ldi. Xususan, afrikalik qullarning Amerikaga ommaviy ko'chirilishi qit'aning demografik tarkibini o'zgartirdi. Bu globallashuvning turli xalqlar iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

XVII asr boshiga kelib, sharq va g'arb savdogarlari keng hududlarni o'zlashtirib, deyarli butun dunyoga tarqaldi. Shu tariqa ular tarixda birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning asoslarini yaratdilar va bu tizim shakllanishi uchun zamin tayyorladilar.

Shunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «evropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»[1, 387]. Shu tariqa yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan yer kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayonlar natijasida dunyo deyarli barcha jihatlarida yaxlit organizmga aylandi. Bunday globallashuvning dastlabki belgilari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi va XX asr o'rtalariga kelib to'liq shakllandi.

Shu davrda dunyoning iqtisodiy bo'linishi yakunlandi, bu esa mamlakatlar va xalqlarning o'sib borayotgan o'zaro bog'liqligi tufayli yangi xalqaro muammolarni keltirib chiqardi. Bu jarayonlar iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, shuningdek aloqa vositalari, madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli xalqaro tashkilotlar, forumlar va kongresslar paydo bo'la boshladi, bunga aloqa va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ham yordam berdi.

Natijada, butun dunyo yirik davlatlar va monopoliyalar o'rtasidagi kurash maydoniga aylandi, bu esa Birinchi jahon urushiga olib keldi. Bu urushda ko'plab xalqlar bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki global iqtisodiy va siyosiy aloqalar hech bir yirik davlatga urushdan yoki uning ta'siridan butunlay chetda qolish imkonini bermas edi. Bu voqea tarix endilikda faqat Yevropa yoki alohida mamlakatlar tarixi emas, balki butun insoniyat tarixi, ya'ni haqiqiy jahon tarixiga aylanganini ko'rsatdi.

1918 yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbatini yuzaga keltirdi. Urushdan keyingi davlatlararo munosabatlar, manfaatlar va ziddiyatlar yanada murakkablashdi, bu esa dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha global hamjamiyatga aylantirdi. Natijada, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari orasidagi davrda globallashuv jarayonlari yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Bu davrda dunyo miqyosidagi aloqalar va munosabatlar yanada chuqurlashdi. Xalqaro savdo, moliya tizimi, transport va kommunikatsiya vositalari rivojlandi. Siyosiy sohada ham globallashuv kuchaydi - Millatlar Ligasi tashkil etildi, xalqaro huquq tizimi shakllana boshladi. Madaniy globallashuv ham tezlashdi - g'oyalar, san'at va madaniy qadriyatlar almashinuvi kengaydi. Shu bilan birga, global muammolar, jumladan, qurollanish poygasi, iqtisodiy tangliklar va ekologik muammolar ham ko'zga tashlana boshladi. Bu davrda, *globallashuvning asosiy belgilari*:

a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarlarda namoyon bo'ldi.[2, 55]

Ammo, hal etilmagan ziddiyatlar va o'sib borayotgan o'zaro bog'liqlik insoniyat tarixidagi eng katta va uzoq davom etgan urush - Ikkinchi jahon urushiga olib keldi. Bu global urushda yer aholisining to'rt dan uch qismi ishtirok etdi va Birinchi jahon urushiga nisbatan ancha ko'p qurbonlar berdi.

Globalashuv nuqtai nazaridan, bu ikki urush aslida bitta global urushning turli bosqichlari edi. Ular o'rtasidagi farq asosan miqdor ko'rsatkichlarida namoyon bo'ldi. Mohiyatan, ikkala urush ham XX asr boshida shakllanib bo'lgan, yaxlit va o'zaro bog'liq dunyoni qayta taqsimlash maqsadiga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir xil edi. Farq shundaki, Ikkinchi jahon urushida texnik jihozlanish darajasi va ko'lami ancha yuqori bo'lib, mafkuraviy ta'sir radio, telefon, aviatsiya, dengiz, temir yo'l va avtomobil transporti kabi aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish tufayli kuchaytirilgan edi.

Ikkinchi jahon urushi, xuddi avvalgi urush kabi, urushdan keyingi dunyo tartibotining o'ziga xos xususiyatlariga aylangan bir qator global oqibatlariga olib keldi. Eng muhimi, urush mutlaqo yangi qurol turlarini (atom va reaktiv qurollar) yaratish bo'yicha tadqiqot va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Bu davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazilib, insoniyatga butun dunyoni vayron qilish va barcha tirik mavjudotlarni yo'q qilish imkoniyatini berdi. Fan-texnika taraqqiyotining bu yutuqlari keyinchalik "sovuq urush" davrida qurollanish poygasining mohiyatini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi hamda makonda tutashligini amalda ko'rsatdi.

Ikkinchi jahon urushining yana bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va turli xalqaro tashkilotlarning misli ko'rilmagan darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) alohida o'rin tutadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.Churchill 1946 yilda Yevropa Qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirganidan boshlab hisoblash mumkin.

Asosiy harbiy jinoyatchilar va natsistlarning yetakchi tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni muhim tadbir va xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasidagi dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8 avgustda g'olib mamlakatlar - SSSR, AQSh, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan o'tkazildi va zamonaviy xalqaro sud tizimini shakllantirishdagi muhim qadam bo'ldi. Shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlar majmui paydo bo'ldi.

Global tahdidlar va globalashuv jarayonlarini keng aholi qatlamlari tomonidan anglab yetilishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlar, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi globalashuvning serqirralik bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi. 1970-yillardan boshlab globalashuv o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilib, ko'p qirrali tus oldi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi. Mif, din, falsafa, fan va ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Bu davr globallashuvning yangi bosqichi sifatida qaraladi, chunki u jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi va dunyoning yaxlitligini yanada kuchaytirdi. Iqtisodiy globallashuv transmilliy korporatsiyalarning kuchayishi, moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va xalqaro savdoning kengayishi bilan xarakterlanadi. Siyosiy globallashuv xalqaro tashkilotlarning roli oshishi, global boshqaruv tizimlarining shakllanishi va davlatlararo hamkorlikning kuchayishida namoyon bo'ldi. Madaniy globallashuv esa g'oyalar, qadriyatlar va madaniy mahsulotlarning global miqyosda tarqalishiga olib keldi.

Globalashuvning serqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar *globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi*:

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi. [3, 78]

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'ektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzil-kesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan yangi axborot maydonini vujudga keltirdi.

Globalashuvning serqirraligi siyosatning ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi.

So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning yangi, «noan'anaviy» sub'ektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu sub'ektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bemaol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur sub'ektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro nohukumat tashkilotlar hisoblanadi. «Yashillar», «muqobillar», antiglobalistlar kabi ijtimoiy harakatlar ham keng dovruq qozondi.

Globalashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga

keltirdi. *Mutlaqo yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi. [4, 102]*

Jahon hamjamiyati yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Natijalar. Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallashuvidan kelib chiqadigan yangi (global) muammolar keltirdi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, shuningdek «jamiyat-tabiat» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hych qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat. Boshqa tomondan esa, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», aniqroq aytganda, yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan yer deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab yetish jarayoni so'nggi o'n yilliklardagina yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, *global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomaliyalar mahsuli ham emas.* Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab oldi va deyarli butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Insonning atrof muhitga salbiy ta'siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu yerda jadal sur'atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog'liq sabablarga ko'ra oldinroq va bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Shu ma'noda 2008 yilda boshlanib, butun dunyoni larzaga solgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari, balki rivojlanayotgan, ayniqsa bozor munosabatlari qaror topayotgan davlatlarda ham o'z salbiy oqibatini o'tkazmasdan qolmadi. Ayni paytda global moliyaviy inqiroz jahon moliya bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va uni tubdan isloh qilishning zarurligini ko'rsatib berdi. Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari ko'p jihatdan bir qator omillarga, xususan, mamlakat moliya valyuta tizimi nechog'lik mustahkam ekanligi, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, oltin valyuta zahirasi hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi bilan bog'liq. [5, 12]

Bunday rivojlanish, avvalo, atrof muhitning tanazzuliga olib keldi va tez orada insonning o'zi ham tanazzulga yuz tutganini namoyon etdi. Zero inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash

tarzi uning atrofida yuz bera boshlagan o'zgarishlarga muvofiq o'z vaqtida o'zgarishga qodir bo'lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur'atlarda rivojlanishiga esa insonning o'zi va uning fan va texnika sohasidagi yangi va yangi yutuqlar bilan ko'p karra kuchaytirilgan izchil o'zgartiruvchi faoliyati sabab bo'ldi.

Xulosa. So'nggi o'n yilliklarda fan-texnika yutuqlari tufayli jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishida avvalgi asrlarga nisbatan ko'proq o'zgarishlar yuz berdi. Bu jarayon tezlashib bordi va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda chuqurroq o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Og'zaki muloqotdan yozuvgacha insoniyat taxminan uch million yil, yozuvdan kitob bosmasigacha besh ming yil, kitob bosmasidan audiovizual vositalargacha besh yuz yil yo'l bosgan bo'lsa, audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o'tish ellik yildan kam vaqtni oldi. Atigi 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa orqali keng muloqot imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Yangi ixtirolarning joriy etilish muddati ham qisqardi - endi bu ko'pincha yillar emas, oylar va hatto kunlar bilan o'lchanmoqda. Nanotexnologiyalarning yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Ikki-uch asr oldin turli millatlar asosan alohida yashar va ular o'rtasidagi aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. Bugun esa yerda nafaqat inson oyog'i yetmagan joylar qolmadi, balki insonning bevosita yoki bilvosita ta'siri yetmagan sof tabiiy hududlar, suv va fazo bo'shliqlari ham deyarli yo'q. Bu holatlar sayyoramizni "umumiy uy", "Koinotdagi orolcha", "to'lqinlanayotgan okeandagi qayiq", "dunyoviy qishloq" deb atash uchun asos bo'lmoqda. Barcha odamlar uchun umumiy bo'lgan muammolar esa olamshumul, umuminsoniy, global deb nomlanmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Xarenberg B. Xronika chelovechestva. – M.: Slovo, 2000. – S.387.
2. Otamurodov S. Globallashuv va millat.-T.: Yangi asr avlodi, 2008.
3. Globalistika: Mejdunarodnyy mejdissiplinarnyy ensiklopedicheskiy slovar / Gl. red. I.I.Mazur, A.N.Chumakov. -M.; SPb.; Nyu-York, 2006.
4. Xolbekov M. Adabiyotda globallashuv jarayoni.-T.: //Tafakkur 2006.№4
5. Muntyan M.A., Ursul A.D. Globalizatsiya i ustoychivoie razvitie. -M.: 2003.
6. Chumakov A.N. Metafizika globalizatsii. Kulturno sivilizatsionnyy kontekst. –M.: Kanon, 2006

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).